

Turg’unboyev Abdullo Bahtiyor o’g’li

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shoir Ubaydiyning arab tilini tilshunoslik jihatidan qanchalik yaxshi bilgani va bu borada naqadar mohir bo’lgani, arabiy hikmatlari qanchalik sarmazmun va ma’noga boyligi ochib berilgan.*

Kalit so’z va iboralar: *Arab tili, morfologiya, grammatika, balog’at, ruboiy, kulliyot.*

Аннотация. *В статье раскрывается, насколько хорошо поэт Убайди знал арабский язык с точки зрения лингвистики и насколько он был искусен в этом деле, насколько богата и значима его арабская мудрость.*

Ключевые слова и фразы: *арабский язык, морфология, грамматика, красноречие, рубайя, куллийят.*

Annotation. *This article reveals how well the poet Ubaydi knew the Arabic language in terms of linguistics and how skillful he was in this regard, how rich and meaningful his Arabic wisdom is.*

Keywords and phrases: *Arabic language, morphology, grammar, eloquence, rubaiyyah, kulliyat.*

To’liq ismi Ubaydulloxon ibn Mahmud Sulton ibn Budog’ Sulton ibn Abulxayrxon bo’lib, “Ubaydiy”, “Qul Ubaydiy” taxalluslari ostida ijod qilib qalam tebratgan Ubaydulloxon ijodining e’tiborga molik jihatlaridan biri u uch tilda – o’zbek, fors-tojik va arab tillarida she’rlar yozib, devon tartib bergan. “Zullisonaynlik” o’sha davr uchun juda ham odatiy hol bo’lgan, lekin uch tilda ijod qilish bilan mashhur bo’lgan ijdokorlar esa juda oz. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati haqida dissertatsiya yozgan olim M.H. Abdullayev bu haqida shunday deb yozgan: “Ikki tilda ijod qilgan shoirlarimiz ko’p bo’lganiga qaramay, o’zbek, fors va arab tillarida qalam tebratganlari nihoyatda kam bo’lgan. Ubaydiy esa arab tilidagi (10 g’azal, 15 ruboiy, 2 qit’a 15 fard) she’rlari bilan ham xazinasiga o’z xissasini qo’shishga harakat qilgan va ma’lum samarani ham qo’lga kiritgan, albatta”.¹ Olimning urg’u berishicha Ubaydiy o’zining arab tilidagi she’rlarida Hasson ibn Sobit kabi ulug’ san’atkorning adabiy-badiiy an’alarini davom ettirishga va rivojlantirishga intilib yaxshi natijalarga erishgan.² Tabiiyki buning sababi kuchli ishtiyoq, mahoratli va olim ustozlardan olingan saboqlar bo’ladi.

¹ Abdullayev M. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Nomzodlik dissertatsiyasi. -Toshkent. 2000, 41-bet.

² Abdullayev M. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Nomzodlik dissertatsiyasi. -Toshkent. 2000, 4-bet.

20-Oktyabr, 2025-yil

Ubaydiy o‘z davrining eng yetuk olimlaridan ta’lim va tarbiya oladi. Arab va fors tillarini qunt bilan o‘qib-o‘zlashtiradi. Ular orasida Amir Abdullo Yamaniy, Hoja Muhammad Sadr singari davrining mashhur allomalari bor edi. Ubaydiy haqida Mirzo Haydar o‘zining mashhur “Tarixi Rashidiy” asarida uning ilm-fanda yetishgan kamolotini ta’riflab shunday degan edi: “U (Ubaydiy – M.A.) yoshligidan barcha fazilatlar bilan bezangan”.³

Ubaydiyning Qur’oni Karimga bo‘lgan mehr-muhabbati va qiziqishini uning yoshlikdayoq Qur’on qiroatini tajvid uslubiga muvofiq mukammal o‘zlashtirgani yoki “Kalomullohni”ni nasx xatida o‘z qo‘lida ko‘chirib, Makka va Madinaga yuborganidan tashqari, Qur’onga turkiy tilda tafsir yozganligidan ham bilish mumkin.⁴ Hasanxo‘ja Nisoriy bu to‘g‘rida shunday deydi: “Fazilatlarining eng yaxshi ko‘rsatkichlaridan biri – u Qur’on mutolaa va qiroatini osonlashtirish uchun turkiy tilda yozgan Qur’on tafsiridirkim, dalillari suyanadigan asosda bitilgan...⁵

Ma’lumki, tafsir yozishga kirishish o‘ta nozik ish bo‘lib, mufasssirdan bir qancha ilmlarni mukammal bilishni taqozo etadi. Shu ilmlar qatorida arab tili ham alohida o‘rin tutishi tabiiy, chunki Qur’on arab tilida nozil qilingan. Keling tafsir yozish uchun mufasssirga filologik jihatdan qanday bilimlar kerakligini manbalar asosida o‘rganib chiqamiz. Islomshunos olim Mahmud Qotton o‘zining “Mabohis fi u‘lumil Qur’on” asarida quyidagilarni keltiradi: “Arab tili va uning qismlarini bilish. Albatta, Qur’on arab tilida tushirilgan va uni tushunish holat e’tiboridan so‘zlarning ma’nolari va izohlariga bog‘liq. ... Ma’nolar esa, e’rob (so‘zning holatlari) turli xil bo‘lishi bilan o‘zgarib boradi. Shu jihatdan nahv (grammatika) ilmini bilish zarurati bor. Yana so‘zlarning asl holatlarini, noaniq so‘zlarning o‘zaklari va undan kelib chiqadigan boshqa so‘zlarni o‘rganadigan sarfni (morfologiya) bilish zarurati bor. Yana ma’no ifodalash jihatidan gap tuzilishining o‘ziga xosliklari va ma’noga ochiq yoki maxfiy dalolat qilish jihatlarini bilish zarurati bor. So’ngra gapni go’zalligi jihatidan - u balog‘atning uch ilmi: maoniy, bayon, badiy’- mufasssirning eng kerakli arkonlaridan hisoblanadi”.⁶ Yurtimizdan chiqqan boshqa bir islomshunos olim R.Obidov o‘zining “Qur’on va tafsir ilmalaridan o‘qiladigan ma’ruza matni” nomli darslik qo‘llanmasida quyidagilarni keltirgan: “A. 1) Lug‘at ilmi: Mufasssir Qur’on lafzlarini, ularning madlulini, o‘zagini bilishi shart. ...

2) Nahv ilmi: Bu ilm jumlaning birinchi va ikkinchi darajali bo‘laklarini, ega-kesimini, so‘zlarning joylashish o‘rnini aniqlab beradi. Arab tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri har bir so‘zning oxirgi harakati o’sha so‘zning darajasini bildiradi va agar harakat o‘zgarsa, ma’no ham o‘zgaradi. ...

3) Sarf ilmi. Bu ilm bilan so‘zlarning tuzilishini va turlanishi o‘rganiladi.

Ibn foris aytadi: “Kimki sarf ilmini o‘rganmagan bo‘lsa, ilmning eng asosiy qismidan bebahra qolgan bo‘ladi. Chunki har bir arabcha so‘z mubham ma’noga ega bo‘lib, uni sarfi

³ Abdullayev M. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Nomzodlik dissertatsiyasi. -Toshkent. 2000, 19-bet.

⁴ Abdullayev M. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Nomzodlik dissertatsiyasi. -Toshkent. 2000, 20-bet.

⁵ Hasanxo‘ja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. -Toshkent. 1993, 27-bet.

⁶ Qotton M. Mabohis fi ulumil Qur’on. -Qohira. 322-bet.

sag’ir (Sarfi sag’ir – ma’nosi mubham bo’lgan masdarning har biri alohida ma’no beradigan 12 siyg’aga solinishidir. Masalan: “zarb” “urmoq” masdarini zaraba, yazribu, zoribun, mazrubun, lam yazrib, lo yazribu, izrib, liyazrib, lo tazrib, mazribun, azrabu siyg’alarga solinishi kabi) yoki sarfi kabir (Sarfi kabir – mazkur 12 siyg’aning har birini birinchi shaxs, ikkinchi shaxs, uchinchi shaxs, birlik, ko’plik, muzakkar, muannas va boshqa ko’rinishdagi 14 siyg’aga solinishidir)ga solingandagina kerakli ma’no hosil bo’ladi”. ...

4) Ishtiqoq: so’zning o’zagini aniqlash ilmidir. Agar bir ismning o’zagi ikkita bo’lsa, undan chiqadiga ma’no ham o’zagiga qarab ikki xil bo’ladi. Masalan: “Masih” so’zi “mash – silamoq” va “sayohat” o’zaklaridan olinadi. Qaysi ma’no murodligini esa mufassir o’zagiga muvofiq aniqlashi mumkin.

B. 1) Balog’at ilmi: Bu ilm o’z navbatida uchga bo’linadi:

a) Ma’oniy: Bu ilm bilan ma’no ifoda qilish uchun jumlar tuzishda so’zlarning xossalari o’rganiladi.

b) Bayon: Bu ilm bilan jumlalarining tuzilish xossalari o’rganiladi.

v) Badi’ Bu ilm bilan jumlarni go’zal ko’rinishda tuzish san’ati o’rganiladi. Mana shu uch ilm mufassirning bilishi lozim bo’lgan asosiy arkonlaridan hisoblanadi.⁷

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ma’lum bo’lyaptiki, Qur’onni tafsir qilishga kirishish uchun mufassir arab tilini lug’at, morfologiya, grammatika va balog’at jihatidan mukammal bilishi lozim bo’lgan. Demak, Ubaydiy bu ilmlarni puxta o’zlashtirgan. Afsuski, bu nodir va bebaho asar bizgacha yetib kelmagan. Lekin, Ubaydiyning arab tilida mohir va kuchli ijodkor bo’lganligini tasdiq etuvchi boshqa ma’lumotlar mavjud. Ubaydiyning arabiy she’rlari serma’noligi va keng talqinlarga imkon berishi bilan o’z davrining boshqa olim va fozil kishilarining e’tirofiga sazovor bo’lgan. Misol tariqasida, Nisoriy “g’ariba fanida iqtidori kuchli” bo’lgan olim Asomiddin Ibrohimning Ubaydiyning bir ruboiysiga yozgan sharhi haqida quyidagilarni quyidagilarni keltirgan: “Hazrati Ubaydulloxon peshindan keyin arabiy tilda bir ruboiy aytib yuborgan ekan, mullo esa namozshomga davur vaqt ichida shu ruboiy xususida bir arabcha risola tasnif qilisjha ulgurganlar. Mazkur ruboiyning har bir misrasi bobida olti yuz ellik ma’no aytganlar”.⁸

Ubaydiyning arab tilidagi ijodi bizga “Kulliyot”i tarkibida yetib kelgan bo’lib, 1583 yilda xattot mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko’chirilgan Ubaydiyning mazkur “Kulliyot”i O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondida 8931 raqam ostida saqlanayapti. “Kulliyot”ning dastlabki qismini forsiy devoni (4-200-bet), undan keyingi qismini arabiy she’r majmuasi (201-210 betlar), va oxiri uchinchi qismini turkiy devoni (211-695 betlar) tashkil etadi.⁹

⁷ Obidov R. Qur’on va tafsir ilmlari fanidan o’qiladigan ma’ruza matni. “Toshkent Islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. -Toshkent. 2003. 120-121 betlar.

⁸ Hasanxo’ja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. -Toshkent. 171-bet.

⁹ Abdullayev M. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent. 2000. 9-10 betlar.

20-Oktyabr, 2025-yil

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ubaydiy taxallusi ostida ijod qilgan shox, shoir Ubaydulloxon zamonasining olim-u fuzalolarining e'tirofi hamda o'zinig asarlari guvohligi birla arab tilining yetuk bilimdoni, sermazmun va serma'no ijod sohibi, tafsir yozishdek ulkan ishga ham tilshunoslik tomonidan to'la layoqatli ijodkor bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.M. Abdullayev. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Nomzodlik dissertatsiyasi. - Toshkent. 2000.
2. Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. - Toshkent. 1993.
3. M. Qotton. Mabohis fi ulumil Qur'on. - Qohira. 1995.
4. Obidov R. Qur'on va tafsir ilmlaridan o'qiladigan ma'ruza matni. "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. -Toshkent. 2003.